

SADRIDDIN AYNIYNING PUBLITSISTIK, MATBUOTCHILIK VA
MA'RIFATPARVARLIK FAOLIYATI

Temitov Farrux Umedovich

t.f.f.d. (PhD) dotsent

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası mudiri

ORCID: 0000-0001-7978-6832. Tel: 90-744-44-08//94-000-30-17

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14983414>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashhur yozuvchi, olim, ma'rifatparvar adib va jamoat arbobi Sadriddin Ayniy hayoti va ilmiy faoliyati, publitsistik ijodi, Turkistonda matbuatchilik fan, ta'lim, maorif va madaniyatning rivojlanishiga munosib hissa qo'shganligi, o'lkada yangi maktablar qurish, o'quv adabiyotlar, darsliklar bilan ta'minlash malakali va yetuk kadr-mutaxassislarini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatganligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, S.Ayniyning ijodiy yo'nalishiga mansub barcha yirik asarlarida va maqolalarida Turkiston xalqlarining mushtarak hayoti, Buxoro amirligining XIX-asr oxiri va XX-asrning boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ziddiyatlarga to'la murakkab davri, inqilobiy harakatlar, maorif va madaniy yangiliklar, mahalliy xalqlarning og'ir turmush-tarzi, urf-odatları aks ettirilganligi ko'rsatib o'tilgan. S.Ayniy bu davrda faqat yozuvchi, publitsistgina emas, balki tarixchi, tanqidchi va adabiyotshunos olim sifatida ham tanilganligi va boshqa muhim masalalar ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, ma'rifatparvar, matbuatchilik, maorif va madaniyat, urf-odatlar, adabiyotshunos olim, publitsist, jadidchilik harakati.

THE PUBLISITICAL, JOURNALISTICAL AND ENLIGHTENMENT ACTIVITIES OF
SADRIDDIN AYNI

Abstract. This article discusses the life and scientific activity of the famous writer, scholar, educator, and public figure Sadriddin Ayni, his journalistic work, and his significant contribution to the development of journalism, education, enlightenment, and culture in Turkestan. It highlights his involvement in building new schools, providing educational literature and textbooks, and training skilled and qualified professionals. Additionally, the article examines the major works and articles of S. Ayni, where he reflects on the common life of the people of Turkestan, the social and economic situation of the Bukhara Emirate at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, its complex and contradictory periods, revolutionary movements, educational

and cultural innovations, the harsh living conditions of local peoples, and their traditions. It is also noted that S. Ayni was not only a writer and journalist but also recognized as a historian, critic, and literary scholar. These and other important issues are analyzed scientifically in the article.

ПУБЛИЦИСТИЧЕСКАЯ, ПЕЧАТНАЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ САДРИДДИНА АЙНИ

Аннотация. В статье описывается жизнь и научная деятельность известного писателя, ученого, просветителя и общественного деятеля Садриддина Айни, его публицистическое творчество, значительный вклад в развитие журналистики, образования, просвещения и культуры в Туркестане, его самоотверженное строительство новых школ в стране, обеспечение их учебной литературой и учебниками, подготовка квалифицированных и зрелых кадров и специалистов. Отмечено также, что все основные произведения и статьи, относящиеся к творческому направлению С. Айни, отражают повседневную жизнь народов Туркестана, социально-экономическую жизнь Бухарского эмирата конца XIX — начала XX вв., сложную эпоху, полную противоречий, революционных движений, образовательных и культурных новшеств, непростого быта и нравов местных народов. Научно анализируется тот факт, что С. Айний был известен в этот период не только как писатель и публицист, но и как историк, критик, литературовед, и другие важные вопросы.

Ключевые слова: Туркестан, просвещение, журналистика, образование и культура, обычаи, литературовед, публицист, джадидское движение.

O'zbek matbuoti tarixi Turkiston tarixidagi jadidchilik harakati bilan tabiiyki bog'lanadi.

Aslida jadidchilik ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda, yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to'la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'rifiy harakatdir. Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o'zanga solish, teatr sahnasidan ibratxona o'rnida foydalanish naqadar muhim bo'lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Samarqandlik jadid muharriri Hoji Muin ta'kidlaydi: "Matbuot bir millatni uyg'otish uchun birinchi omil bo'lg'onidek, uning tarixi ham "uyg'onish davri" tarixining muhim bir bo'lagi sanaladur"[1]. Darhaqiqat, matbuot, nashriyotchilik o'zbek jadidchilik davri tarixida juda muhim o'rin tutadi.

Millat ma'naviyatini isloh etish, odamlarni ma'rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o'rgatish va tafakkurni uyg'otishning eng asosiy omili sifatida jadid muharrirlari matbuotning qadrini baland ko'tardi. Matbuot ular nazdida fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo'lida xizmatchi, odamlar ong-u shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko'zgu bo'lmog'i lozim edi.

Turkistonlik ziyolilar o'zlari gazeta chiqargunga qadar bir muddat Qrimga – Boqchasaroyga ko'z tikishdi. Ismoilbek Gasprinskiyning “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan g'oyalariga havaslanib qarashdi. Jadidlar shu allomaning “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini o'qib, uning muxlisi va muhibiga aylanishdi. Gazeta til va fikr birligi masalasini kun tartibiga qo'ydi, uning yo'li, maslagi va maqsadi aniq edi: “Tarjimon” – har turli ish, ahvol va ixtilofga “haqqoniyat” va “mumkinyat” jihatidan boqajakdir. “Tarjimon” tavhidi lison, tavhidi afkor va maorifi milliya masalalarida g'ayrati doimiyda bo'lajakdir. “Tarjimon” – har na so'ylar va yozar bo'lsa, bu kunda millatning anglami, idrok va qabul etishi suratda arz va bayon etajakdir”. Garchi “Tarjimon”ning Turkistondan o'quvchilari ko'p bo'lsa ham, bosilishining boshlarida turkistonlik yozuvchilar juda kam – onda-sonda ishtirok etdi.

Tarjimon gazetasida Turkiston mintaqasida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar haqida xabarlar, taraqqiyparvarlik harakati, maktab va maorif sohasidagi o'zgarishlar, yangi usul maktablarining tashkil etilishiga oid maqolalar muntazam chop etib borilgan[2: 7]. Mualliflar ba'zan maqola-xabar yozishsa, ayrim hollarda “Tarjimon”dan o'zlarining eng muhim savollariga javob olish niyatida maktublar yo'llaydi.

XX-asr boshlarida jadidchilik harakatining katta ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida Turkistonning o'zida ham asosiy omil bo'lib xizmat qilgan zamin va shart-sharoit yetilgan edi. Bu omil matbuot, nashriyot va publitsistika sohalari bilan bevosita bog'liq holda kechdi. Jadid matbuotchiligi 1905-yildan keyin maydonga keldi. Biroq bunda ikki omil: 1) Turkistondagi mavjud o'zbekcha, aytish mumkinki, yagona nashr – “Turkiston viloyatining gazetasi”; 2) Usmonli turk, Kavkaz orti, Volgabo'yi matbuotining ham roli katta bo'ldi. Ta'kidlash joizki, Turkiston matbuoti umumiysi musulmon matbuoti bilan qadam-baqadam birga rivojlanib boraverdi, o'lka aholisining turmushi, bu yerdagi diniy ahvol, odamlarning turli xurofotlarga berilib ketganligi va milliy taraqqiyot bilan bog'liq masalalarni ko'tarib chiqdi va ularning yechimini topishga intildi[3: 42-43].

Turkiston matbuoti 1905-yildan keyin tarixan qisqa muddat ichida katta bosqichni bosib o'tdi, natijada ko'plab gazeta va jurnallar nashr etildi[4: 67].

Abdulla Avloniy “Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasida 1905-1917-yillar oralig‘ida Turkistonda o‘zbek tilida 22 ta gazeta, 8 ta jurnal nashr etilganini xabar beradi[5]. 1927-yilda “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927)” tadqiqotini chop ettirgan Ziyoy Saidning aniqlashicha, o‘tgan oraliq davrda 45 ta gazeta, 36 ta jurnal dunyo yuzini ko‘rgan[6: 113-116].

Jumladan: “Tarjimon” (Bog‘chasaroy, 1883-1917), “Vaqt” (Orenburg, 1907-1917), “Taraqqiy” (1906-yil 27-iyun - 1906-yil 20-avgust) “Buxoroyi sharif” (Yangi Buxoro, 1912-1913), “Sho‘ro”, “Samarqand” (Samarqand, 1913-yil 16-aprel – 1913-yil 17-sentabr), “Sadoi Turkiston” (Toshkent, 1914-1915) [7: 69], “Sadoi Farg‘ona” (Farg‘ona, 1914-1915), “Hurriyat” (Samarqand, 1917-1918), “Uchqun” (Toshkent, 1920), “Qutulish” (Toshkent, 1919), “Mehnatkashlar tovushi” (Toshkent, 1919-1921), “Buxoro axbori” (Eski Buxoro, 1920-1923), “Turkiston” (Toshkent, 1922), “Zarafshon” (Toshkent, 1922-1923) kabi gazetalar, “Oyina” (Samarqand, 1913-1915), “Al-Isloh”[8] (Toshkent, 1915-1918), “Tayoq”, (Samarqand), “Mashrab” (Toshkent, 1924 – 1925), “Mulla Nasriddin” (Tiflis, 1909-1911), “Vaqt” (Orenburg, 1916 – 1918), “Bolalar yo‘ldoshi”, (Samarqand, 1919), “Bolalar dunyosi” [9], “Shu‘layi inqilob” (Samarqand; 1919-1921), “Tong” (Buxoro, 1923) “Maorif va o‘qituvchi” (Toshkent; 1923-1929) jurnallarda mavzu tadqiqotiga oid muhim materiallar mavjud[1]. Unda, adib S.Ayniyning publitsistik, matbuotchilik va murabbiylik faoliyatiga oid ma’lumotlar berilgan[10: 449]. Ushbu gazeta va jurnallarda ma’rifatparvar adib, publitsist olim “S.Ayniy”, “Qof Sin”, “Sin Mim”, “Qof Alif”, “S. M”, “Q. S”, “S. X”, “S”, “X”, “Q. A”, “S. Q”, “S. A” [12: 336] va boshqa imzolar ostida maqolalar, hajviyalar, she’rlar yozgan.

1918-1920-yillarda S.Ayniy Samarqandda asosan, ta’lim-tarbiya ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldi. Shuningdek, u “inqilob”ni madh etuvchi va eski tuzumni tanqid ostiga oluvchi badiiy - tarixiy publitsistik maqolalar va she’rlar yozishga zo‘r beradi. Ularning aksariyati Samarqandda chiqadigan “Shu‘layi inqilob” (“Inqilob shulasi”), “Bolalar yo‘ldoshi”, “Tayoq” jurnallari va “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “Hurriyat” gazetalarida chop etiladi. Bu haqda S.Ayniyning o‘zi shunday yozadi: “Samarqandda tojik tilida “Shu‘layi inqilob” jurnali va “Mehnatkashlar tovushi” nomidagi o‘zbek tilida gazeta nashr bo‘lardi. Men bularning ikkalasiga ham xizmat qilardim. O‘sha vaqtlarda mahalliy kadrlar yetishmas, ozchilikni tashkil qilar edi, shuning uchun ham men bu jurnal va gazetaning ko‘p qismini turli imzolar bilan maqolalar yozib to‘ldirar edim. Ikki tilda she’r yozardim, ikki tilda maqolalar yozardim”[14: 91].

“Shu’layi inqilob” haftalik majmua (jurnal) nashri 1919-yil 10-apreldan boshlab, 1921-yilning dekabr oyiga qadar davom etdi. “Uch yil davom etgan forsiycha (tojikcha) “Shu’layi inqilob” jurnali ham kog‘oz va oqcha yo‘qliq, ham toshbosma asbobi yetishmaganlik sababli 1921-nchi yil oxirlarida to‘xtalmoqqa majbur bo‘ldi. Yo‘qsa, ul ham ma’naviy jihatdan hech vaqt torliqda qolmag‘on edi”. Saidrizo Alizoda imzosi bilan tasdiqlangan bir xatda Samarqand uyezdi rahbariga “Shu’layi inqilob” jurnali chop etilishi to‘xtatilgani va uning sababi aytilgan:

1. Obunachilar muddati tugagani, yangi obunachilarni jalb etuvchilar yo‘qligi;
2. Litografiya idorasi tomonidan muqova uchun qizil rangli qog‘oz berilmayotgani, berilgan sariq rangli qog‘oz maqsadga muvofiq emasligi;
3. Xodimlar yo‘qligi tufayli jurnalni tayyorlash va chop etish bilan bog‘liq barcha ishlar faqat muharrir zimmasida qolganligi.

Bu hujjat 1919-yilning 30-oktabrida imzolangan.

Ushbu majmuaning mas’ul muharriri Saidrizo Alizoda [15: 96] bo‘lib, Samarqand viloyat ishtirokiyun Qo‘mitasi jurnalga muassis edi. Jami uning 91 soni chop etilib, har bir soni 8 sahifadan iborat edi”. Bu haqda S.Ayniy shunday yozadi: “Shu’layi inqilob” (“Inqilob shu’lasi”) jurnalida 23-sonidan (1919-yil, 7-dekabr) mening maqolalarim boshlanadi. Oldin “Sin Mim” (otamning nomi “Saidmurod” edi, “Saidmurodzoda” unvonidan ikki harfi olingan edi) va gohida “Qof-Sin” imzosida, gohida “Sin-xo”, “Sin”, “xo”, “Sin-qof”, “Sod-Ayn” va “Sod-Ayny” imzosida ham to jurnalning to‘xtaganigacha - 91-sonigacha (1921-yil, 8-dekabr - F.T) to‘liq ikki yil davom etdi. “Qof-Alif” imzosida ham mening ba’zi maqolalarim chop bo‘lgan edi”[15: 449].

Ma’rifatparvar adib bu yillarda “Shu’layi inqilob” (“Inqilob shulasi”) jurnali sahifalarida o’sha zamondagi jahon maydonlarida, sharq malakatlarida yuz berayotgan ijtimoiy muammolar, iqtisodiy-siyosiy voqealar haqida fikr yuritadi, jumladan ushbu jurnal sahifalarida chop etilgan “Eron va Sharq inqilobi”, “Eron maydonga kirdi”, “Rossiya sho‘rolar hukumati va Eron davlati”, “Inqilob olovi”, “Sharq masalasi”, “Oktabr inqilobi va Sharq masalasi”, “Sharqda inqilob g‘alabasi”, “Inqilobdan keyingi Sharqning o‘tgan va hozirgi ahvoli”, “Turkiya, Hindiston va Afg‘oniston inqiloblari”, “Turkiyaning birinchi firqa ishtirokchilari anjumani”, “Bokuda Sharq aholisining birinchi anjumani”, “Sharq olami” “Rusiya va Turkiya munosabti” kabi bir qator maqolalari bunga misol bo‘lib, unda Rossiya, Turkiya, Angliya, Hindiston, Eron, Afg‘oniston, Ozarboayjon va Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi muhim ma’lumotlarni beradi.

S.Ayniyning qizi, adabiyotshunos olim Xolida Ayniyning yozishicha, 1919-yil 13-iyuldan boshlab ikki yilu besh oy ichida “Shu’layi inqilob” jurnalida S.Ayniyning 67 ta maqolasi e’lon qilingan[19: 63]. Adabiyotshunos olim A.Maniyozov S.Ayniyning birgina “Shu’layi inqilob” jurnalida turli taxalluslar bilan 90 ga yaqin she’r va maqolalari bosilganligini ko’rsatib o’tadi. Shuningdek, SAyniy “Sarson”, “Furtakigo’y”, “Tolesiz”, “Azg’ich”, “Tayoq”, “Zimg’oyib”, “Buzina”, “Battol”, “Ro’zador” kabi turli imzo va taxalluslar bilan o’sha davr matbuot sahifalarida ko’plab hajviy she’rlari va maqolalari nashr etilgan.

S.Ayniyning “Amir Temur binolaridan Bibixonim xarobasi ila musohaba” she’rida, sohibqiron Amir Temur tomonidan 1399-1404-yillarda qurilgan Bibixonim jome’ masjidining ulug’vorligi va betakror me’moriy obidaning so’nggi davrlarga kelib xaroba holiga tushib qolishi, uni oyoqosti qilmoqchi bo’lganlarni bahs-munozaraga chaqiradi va kelajak avlodlarga asrab-avlaylab yetkazish haqida so’z yuritadi. Uning “Navoiy bolalari uchun” she’rida esa Turkiston bolalariga xitob qilib, ularni ilm-ma’rifat cho’qqilarini zabt etishga chaqiradi va yosh avlodni haqli ravishda buyuk shoir Alisher Navoiyning munosib vorislari sifatida tilga oladi. Uning 1918-1925-yillarda yozgan ayrim she’rlari “Mehnatkashlar tovushi” va “Zarafshon” gazetasi sahifalarida ham nashr etilgan edi.

S.Ayniy Qozon, Ufa va Orenburgdan kelib, Buxoroda doimiy yashab qolgan tatar ziyolilari, ma’rifatparvarlari bilan mustahkam aloqa o’rnatgan. Uning madrasadosh do’ssti bo’lgan tatar Olimjon Idrisiy ma’lum vaqt muharrirlik qilgan “SHo’ro” jurnalida ham adibning Buxorodan yozib yuborgan ilmiy-adabiy maqolalarini chop ettilgan. “Sho’ro” jurnalining 10 yil davomida chiqqan 240 ta sonida Turkiston hayotiga oid 323 ta material bosilgan. Shundan, maqolalar -138 ta, xatlar-90 ta, badiiy asarlar -71 ta, xabarlar-21 ta, fotosuratlar-3 ta. Maqolalar tarix (38), ta’lim-tarbiya (25), ijtimoiy hayot (23), din (4), siyosat (6), matbuot (13), adabiyotshunoslik (12), safarnoma kabi sohalarni qamrab olgan.

Jumladan, tarix haqidagi maqolalarda yurtimiz o’tmishi, buyuk ajdodlarimiz hayoti, osori atiqalarimiz, muqaddas qadamjolarimiz yoritilgan bo’lsa, ta’lim-tarbiyaga oid chiqishlarda maktab-madrasalarning umumiy ahvoli, o’quv dasturlari, moliyaviy holati, o’qitish saviyasi, usullari, Turkistonda savodxonlik, til-imlo birligi bilan bog’liq masalalarga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, Turkistonning siyosiy ahvoli, davlat qurilishi, idora usuli, aholining turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, islom taraqqiyoti, diniy muassasalar masalalari bilan bog’liq maqolalarga ham keng o’rin berilgan.

S.Ayniy publitsistika janrida samarali ijod etib, turli mavzularga oid o'sha davr matbuotida o'zining bir qancha maqolalarini e'lon qilgan. S.Ayniyning xalqaro mavzularda yozilgan ijtimoiy-siyosiy publitsistik maqolalari ham mavjud. Bu maqolalarda Hindiston, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Turkiya hamda arab xalqlari hayoti sharhlangan. Uning maqolalarida Amerika va Angliya mustamlakachilarining Sharqda olib borayotgan siyosati tanqid ostiga olingan. Bu mavzuga oid maqolalari asosan "Shu'layi inqilob" jurnalida nashr etilgan. Shuningdek, S.Ayniy do'stlik, birodarlik, adolatparvarlik g'oyalari ham aks ettirilgan siyosiy-publitsistik

Shuningdek, adib Amir Temurning suyuqli nabarasi bo'lgan Mirzo Ulug'bek (1394-1449; hukmronlik davri: 1409-1449) tomonidan Samarqand va Buxoroda bino qilingan muhtasham binolarni ham sanab o'tgan. U "Ulug'bek rasadxonasi" nomli maqolasida o'z davrida mashhur astronomiya maktabini yaratgan Mirzo Ulug'bek davridagi ilm-fan taraqqiyoti, uning atrofida buyuk olimlarning faoliyat ko'rsatganligi, 1424-1428-yillarda qurilgan rasadxona, uning tarixi, ilmiy faoliyati, Amir Temurning munosib davomchisi sifatida ilm-fan ahliga g'amxo'rlik qilganligi va boshqalar to'g'risida muhim bo'lgan ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

S.Ayniyning "Eski osorlar. Chil ustun, Ko'ksaroy, Chinnixona va Ko'ktosh" nomli tarixiy tadqiqotida Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand shahrining har jihatdan rivojlanganligi, qo'pgina tarixiy obidalar Chil ustun, Chinnixona, Ko'ksaroy va Ko'ktosh kabi o'z davrining mashhur yodgorliklari qurilganligini aytadi. Amir Temur Samarqand shahrini o'z davlatining poytaxti etib belgilaganidan keyin Movarounnahr o'lkasi ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan gullab-yashnaganligini e'tirof etgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, S.Ayniy matbuotchilik va murabbiylik faoliyatida samarali ishlab Turkistonda ilm-fan, madaniyat, milliy matbuotchilik, publitsistikani rivojlantirish, mahalliy xalqni savodli qilib tarbiyalashda va ijtimoiy-siyosiy ongini o'stirishda milliy matbuot qudratli kuch ekanligini bilib, uning taraqqiy ettirishda o'zining munosib hissasini qo'shdi. S.Ayniy o'z zamonida publitsistika sohasida barakali ijod qilib, o'sha davrning nozik, muhim masala va muammolarini mohirona tarzda bayon etgan.

REFERENCES

1. Хожі Муин. Самарқанд матбуотининг тарихи // "Зарафшон". 1923 йил, 5 май.
2. Жамолова Д. Туркистон ва Шарқ мамлакатлари тараққийпарварларининг ўзаро алоқалари. (XIX аср охири – XX аср биринчи чораги). – Тошкент: Фан, 2023. – Б.7.

3. Агзамхўжаев С., Улуғбекова З. “Ал-ислоҳ” журнали - Туркистондаги ислоҳотчилик ҳаракатини ўрганиш бўйича тарихий манба (1915-1918). –Тошкент; 2021. – Б. 42-43
4. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 67.
5. Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // “Туркистон”, 1924 йил 24 июнь
6. Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870-1927) / Танланган асарлар (Тўпловчи Ш.Турдиев). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 113-116.
7. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 69.
8. Чўлпон. Туркистонда матбуот // “Жамият ва бошқарув”, 1998 йил № 2. – Б. 41-42
9. Айний С. Мавсими барфу фасли зимистон // “Ал – ислоҳ”, 1917 йил 1-январь
10. Айний С. Навоий болалари учун // “Болалар дунёси”. 1921, № 2.
11. Айний С. Акнун навбати қалам аст. (Осори баргузида дар ду жил). – Душанбе: Ирфон, 1977. – саҳ. 449.
12. Айний С. / Куллийёт. 16 чилд. чилди-1. – Сталинобод, 1958. – Б. 338.
13. Ayniy S. Amir Temur binolarindan Bibixonim xarobasi ila musohaba // “Bolalar yo‘ldoshi”. 1919, № 2-3, 23 may. – В. 3.
14. Айний С. Мухтасар таржимаи ҳоли худам / Куллийёт. 16 чилд. Чилди-1. – Сталинобод, 1958. – саҳ. 91.
15. Саидризо Ализода – муҳаррир, таржимон олим аа маърифатпарвар // Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд, 2022. – 198 Б; Тошев Ф. 11705-шахсий иш жадид Саидризо Ализода ҳаётига оид янги маълумотлар // “Зарафшон”, 2022 йил 19 июль..
16. Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. – Москва: Чопхонаи нашриёти марказии халқии Жамоҳири шўравии Сўсиёлистӣ, 1926.
17. Айний С. Ҳукумати Шўро ба мо чи дод // “Шуълаи инқилоб”. № 24.15-уми декабр. – 919.саҳ. 1-3; Масъалаи Шарқ // “Шуълаи инқилоб”. №29, декабр, 1919.
18. Имзо: Син Мин. Ғалабаи инқилоб дар Шарқ // “Шуълаи инқилоб”, 1920, № 38, 25 май саҳ. 1; Аҳволи чангу сиёсат. 1920, № 39, 3 июнь; Эрон ба майдон даромад. 1920, № 41, 1 июль; Инқилобҳои гузашта дар Шарқ ва аҳволи ҳозира. 1920, № 42, 2 июль; Рўзномаи музокироти анжумани аҳолии Шарқ дар Боку. 1920, № 48, 6 сентябрь. саҳ.

- 2; Эрон ва инқилоби Шарқ. 1921, № 76, 19 май, саҳ. 1-2; Масъалаи маориф ва китоб. 1921, № 81, 1 август, саҳ. 1-2
19. Холида Айни. Жизнь Садриддин Айни. – Душанбе: 1982. – стр. 63.
20. Ҳасанов М. Айний чамани. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 169.
21. Айний С. Масъалаи Шарқ // “Шуълаи инқилоб”. 1919, № 26, 29 декабрь. – Б. 1-4; 1920, № 27, 5 январь. – Б. 1-4; Аҳволи Эрон. 1920, № 28, 12 январь. – Б. 1-3; Аҳволи жангу сиёсат. 1920, № 39, 3 июнь. – Б. 1; Ғалабаи инқилоб дар шарқ. 1920, № 38, 25 май. – Б. 1; Эрон ба майдон даромад. 1920, № 41, 1 июль. – Б. 1; Рӯзномаи музокирати анжумани аҳолии Шарқ дар Боку. 1920, № 48, 6 сентябрь. – Б. 2; Муносибати ҳукумати алияи Афғонистон ва ҳукумати ҷумҳурияи шӯроии Бухоро. 1921, № 65, 3 февраль. – Б.2; Ҳукумати шӯроии Русия ва давлати Эрон. 1921, № 68, 24 февраль. – Б. 1; Анжумани якуми фирқаи иштрокиюни Туркия. 1921, № 68, 24 февраль. – Б. 2.
22. Айний С. Улуғбек расадхонаси // “Ленин йўли”. 1948, 9 июль.
23. Ayniy S. Eski osorlar. Chil ustun, Ko‘ksaroy, Chinnixona va Ko‘ktosh // “Maorif va o‘qitg‘uchi” , 1926, № 7 – 8. 28 -29.